



Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati
sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish
bo'yicha tarmoq kengashi

Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-026



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va Mashg'ulotlarning milliy klassifikatoriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Elektrotexnika va mashinasozlik tarmog'i bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malakalar ramkasi elektrotexnika tarmog'ida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Elektrotexnika va mashinasozlik yo'nalishi bo'yicha Tarmoq malakalar ramkasining asosiy maqsadi to'qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati tarmog'ida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malakalar ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati tarmog'idagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu Tarmoq malakalar ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

agregat – mahsulotning qismlari alohida yig'ilganiga qaramasdan to'la o'zaro almashuvchanlikka ega va shu bilan birga o'z vazifasini mahsulotda yoki 9 mustaqil ravishda bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan yig'ma birlik;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

detal – bu yig'ish operatsiyalari ishtirokisiz bir jinsli materialdan tayyorlangan mahsulotdir (masalan, po'latdan tayyorlangan val, quyib olingan korpus va boshqalar);

guruh – iqtisodiy faoliyatning keng sohasini bildiradi. Har bir guruh faoliyatning yirik segmentlarini birlashtiradi;

yig'ma birlik (uzel) – bu alohida yig'ilib va keyinchalik yig'ish jarayonida yaxlit holda ishtirok etuvchi mahsulotning tarkibiy qismidir;

yig'ma komplekt – bu mahsulotni yoki uning tarkibiy qismini yig'ish uchun ish joyiga uzatib beriladigan mahsulotning tarkibiy qismlari guruhi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

Konstruktorlik yig'ma birlik – mustaqil yig'ish sharoiti unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan, faqat funksional ish vazifasini bajarish holatiga asoslanib loyihalangan yig'ma birlik;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mashina – bu bir turdagi energiyani boshqa tur energiyaga aylantirish yoki biror ish bajarish uchun maqsadli harakatni amalga oshiruvchi mexanizm yoki mexanizmlar majmuasidir;

mahsulot – bu korxonada tayyorlanadigan ishlab chiqarish buyumlari yoki buyumlar to'plamidir;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishga asos bo'lgan Qonunlar, qarorlar, normativ hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-maydagi "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va tarmoqning investitsiyaviy hamda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4348-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-martdagi "Elektrotexnika sanoatini yaxshilash va ishlab chiqarishni yaxshilash uchun bardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5011-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi "Mis va noyob metallar xom ashyosini qayta ishlashning texnologik zanjirlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-295-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-yanvardagi "Elektrotexnika sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-15-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-20-son Qarori;

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-oktabrdagi ““O‘zeltexsanoat” uyushmasining Elektrotexnika sanoatini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 877-son Qarori;

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-avgustdagi “Ohangaron Tech Industrial” texnoparkini boshqarish direksiyasi” davlat unitar korxonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 459-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida"gi 369-son Qarori.

Asosiy qisqartmalar:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;

2. Tarmoq malakalar ramkasining pasporti

Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati sohasining tavsifi: elektr jihozlari, mashina va mexanizmlarni loyihalash, ishlab chiqarish, montaj va ta‘mirlashni o‘z ichiga olgan tarmoqdir. Ushbu soha ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, energetika, transport, qurilish va boshqa ko‘plab tarmoqlarni texnik vositalar bilan ta‘minlaydi. Mashinasozlik sanoati asbob-uskunalar, mexanizmlar va detallarni tayyorlasa, elektrotexnika sohasi elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va iste‘molchilarga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Ikkala yo‘nalish sanoat taraqqiyoti va texnologik innovatsiyalarni jadallashtirishda asosiy omil hisoblanadi.

Seksiyalar nomi: C- Ishlab chiqaradigan sanoat.

O‘zbekiston Respublikasida Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo‘lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	C seksiya– Ishlab chiqaradigan sanoat	26 Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	26.1 Elektron qismlar va platalar (sxemalar) ishlab chiqarish	26.11 Elektron qismlar ishlab chiqarish	26.11.0 Elektron qismlar ishlab chiqarish
2				26.12 Elektron yuklash panellari ishlab chiqarish	26.12.0 Elektron yuklash panellari ishlab chiqarish
3			26.2 Kompyuterlar va periferik	26.20 Kompyuterlar va periferik	26.20.0 Kompyuterlar va periferik

			uskunalar ishlab chiqarish	uskunalar ishlab chiqarish	uskunalar ishlab chiqarish
4			26.4 Maishiy elektronika asboblari ishlab chiqarish	26.40 Maishiy elektronika asboblari ishlab chiqarish	26.40.0 Maishiy elektronika asboblari ishlab chiqarish
5		27 Elektr uskunalar ishlab chiqarish	27.2 Batareya va akkumulyatorlar ishlab chiqarish	27.20 Batareya va akkumulyatorlar ishlab chiqarish	27.20.0 Batareya va akkumulyatorlar ishlab chiqarish
6			27.3 Elektr simlari va elektr simli asboblari ishlab chiqarish	27.31 Optik tolali kabel ishlab chiqarish	27.31.0 Optik tolali kabel ishlab chiqarish
7				27.32 Elektr simlari va kabelning boshqa turlarini ishlab chiqarish	27.32.0 Elektr simlari va kabelning boshqa turlarini ishlab chiqarish
8				27.33 Elektr asboblari ishlab chiqarish	27.33.0 Elektr asboblari ishlab chiqarish
9			27.4 Yoritish uskunalarini ishlab chiqarish	27.40 Yoritish uskunalarini ishlab chiqarish	27.40.0 Yoritish uskunalarini ishlab chiqarish
10			27.5 Maishiy asboblari ishlab chiqarish	27.51 Maishiy elektr asboblari ishlab chiqarish	27.51.0 Maishiy elektr asboblari ishlab chiqarish
11				27.52 Maishiy noelektr asboblari ishlab chiqarish	27.52.0 Maishiy noelektr asboblari ishlab chiqarish
12			27.9 Boshqa elektr asboblari ishlab chiqarish	27.90 Boshqa elektr asboblari ishlab chiqarish	27.90.0 Boshqa elektr asboblari ishlab chiqarish
13		28 Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	28.2 Umumiy foydalanishga mo'ljallangan boshqa mashina va uskunalarini ishlab chiqarish	28.21 Plita, pechka va doimiy uy-ro'zg'or isitish uskunalarini ishlab chiqarish	28.21.0 Plita, pechka va doimiy uy-ro'zg'or isitish uskunalarini ishlab chiqarish
14				28.22 Ko'tarma-transport uskunalarini ishlab chiqarish	28.22.0 Ko'tarma-transport uskunalarini ishlab chiqarish

15				28.23 Kompyuterlar va periferik uskunalardan tashqari ofis texnikasi va jihozlari ishlab chiqarish	28.23.0 Kompyuterlar va periferik uskunalardan tashqari ofis texnikasi va jihozlari ishlab chiqarish
16				28.24 Qo'l elektr asboblari ishlab chiqarish	28.24.0 Qo'l elektr asboblari ishlab chiqarish
17				28.25 Sanoat konditsioner uskunalarini ishlab chiqarish	28.25.0 Sanoat konditsioner uskunalarini ishlab chiqarish
18				28.29 Boshqa toifalarga kiritilmagan umumiy foydalanishga mo'ljallangan mashina va uskunalarni ishlab chiqarish	28.29.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan umumiy foydalanishga mo'ljallangan mashina va uskunalarni ishlab chiqarish

TMR quyidagi kasbiy guruhlar va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
2	13211	Ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
3	13212	Energiya ta'minoti sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
4	13301	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi tuzilmaviy bo'linmalar rahbarlari
5	14390	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan boshqa soha xizmatlari rahbarlari, b.g.k.
6	21411	Ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha muhandislar
7	21442	Sanoat uskunolari va asboblari bo'yicha muhandislar
8	21449	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan mexanika muhandislari, b.g.k.
9	21492	Materialshunoslik bo'yicha muhandislar
	21499	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan muhandislik va texnika sohasidagi professional-mutaxassislar, b.g.k.
10	21519	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan energetika muhandislari, b.g.k.

11	21521	Elektronika va nazorat-o'lchov asboblari elektronikasi bo'yicha muhandislar
12	25140	Sanoat mobil qurilmalari dasturiy ta'minotini ishlab chiquvchi
13	31131	Texnik-elektriklar (umumiy)
14	31132	Energetika sohasidagi texniklar
15	31139	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan texnik-elektriklar, b.g.k.
16	31142	Kompyuter apparat ta'minoti va robototexnika bo'yicha texniklar
17	31145	Nazorat-o'lchov asboblari elektronikasi bo'yicha texniklar
18	31151	Texnik-mexaniklar (umumiy)
19	31153	Sanoat uskunalari va asboblari bo'yicha texniklar
20	31155	Temir yo'l transporti bo'yicha texniklar
21	31159	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan texnik-mexaniklar, b.g.k.
22	31299	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan brigadirlar, b.g.k.
23	43221	Ishlab chiqarish, sanoat, energetika sohasi (ishlab chiqarishni rejalashtirish) mahsulotlarni hisobga olish bilan shug'ullanadigan xodimlar
24	72121	Payvandlovchilar
25	72149	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan konstruksion material tayyorlovchilar va montaj qiluvchilar, b.g.k.
26	72231	Metall va materiallarga mexanik ishlov berish ishchilari
27	72232	Avtomatlashtirilgan va yarimavtomat liniyalar operatorlari va sozlovchilari
28	72233	Metall va materiallar bilan ishlash bo'yicha ishchilar
29	72311	Mexanik transport vositalari dvigatellari va transmissiyasini ta'mirlash bo'yicha avtomexaniklar va chilangarlar
30	72333	Sanoat va texnologik uskunalarini sozlash va ta'mirlash
31	72335	Energetika uskunalarini ta'mirlash uchun montajchilar, chilangarlar va sozlovchilar
32	72337	Quvur tizimlari va ventilyatsiya uskunalarini ta'mirlash uchun montajchilar, chilangarlar va sozlovchilar
33	74123	Maishiy elektr asboblari elektromontyorlari va elektromexaniklari
34	74129	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan elektr jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyorlar va elektromexaniklar, b.g.k.
35	75320	Andozalar tayyorlovchilar va bichuvchilar
36	81221	Galvanotexniklar

3. Tarmoq tahlili

Mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi elektrotexnika sanoati bugun jadallik bilan o'sib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-yanvardagi "Elektrotexnika sanoatining eksport salohiyatini yanada rivojlantirish va oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4090-son qaroriga muvofiq "O'zeltexsanoat" AK negizida uning mol-mulki va davlatga tegishli boshqa vositalarni, shuningdek, debitor va kreditor qarzdorligini ("O'zeltexsanoat" AKga tegishli xo'jalik jamiyatlarining ko'chmas mulki va ustav kapitalidagi aksiyalar paketi (ulushi) bundan mustasno) o'tkazgan holda

O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari uyushmasini (keyingi o'rinlarda — "O'zeltexsanoat" uyushmasi) tashkil etildi.

"O'zeltexsanoat" kompaniyasining asosiy harakatlari:

- xom ashyoni qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha yagona kompleks sifatida, shu jumladan sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va qo'llab-quvvatlash asosida sanoatni barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;

- ichki va tashqi bozorlarda elektrotexnika mahsulotlariga bo'lgan talab konyunkturasini o'rganish va shu asosda mahsulotning yangi turlarini o'zlashtirishda ko'maklashish, ichki bozorni yuqori sifatli milliy elektrotexnika mahsulotlari bilan to'ldirish va uning eksport geografiyasini, shu jumladan turli axborot resurslari va ko'rgazma tadbirlarida milliy brendlarni ilgari surish va elektrotexnika sanoati korxonalari salohiyatini namoyon etish orqali kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologik ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun investitsiyalar, birinchi navbatda, chet el investitsiyalarini keng jalb qilishga ko'maklashish, sanoatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, ixtisoslashgan yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan qo'shma ishlab chiqarishni tashkil etish;

- elektrotexnika sanoati sohasidagi standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini xalqaro talablar va standartlar bilan uyg'unlashtirish orqali uni takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish;

- hududlar salohiyatini yanada rivojlantirish istiqbollari, xom ashyo bazasi, infratuzilma, mehnat resurslari va bozorlarning mavjudligidan kelib chiqqan holda elektrotexnika sanoati korxonalarini joylashtirishga ko'maklashish;

- elektrotexnika sanoati sohasida kadrlarni tayyorlashga bo'lgan real ehtiyoj va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash, mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarni takomillashtirishda ishtirok etish, mazkur sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish;

- sanoatni jadal rivojlantirishga va elektrotexnika sanoati korxonalarining barqaror faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish, mazkur sohada qonunchilikni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Yangi O'zbekistonning 2030-yilga mo'ljallangan strategiyasida ham aynan mazkur sohani tubdan takomillashtirish va yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Elektrotexnika sanoati sohada yaratilgan sharoitlar natijasida so'nggi yetti yilda respublikaning yirik mahalliy sanoat tarmog'iga aylandi, tarmoqda ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 barobarga, eksport hajmi 7 barobarga o'sdi va geografiyasi 63 ta davlatga yetdi.

Mahsulotlarning eksport geografiyasi ham kengaytirildi. "GSP+" imtiyozlaridan foydalangan holda Yevropa davlatlariga, umuman olganda 60 dan

ortiq mamlakatlarga elektrotexnika mahsulotlari eksport qilindi. Rossiyaning "Eldarado", "M-Video", "DNS Atlas", Fransiyaning "Ashan" hamda Qozog'istonning "Sulpak" va "Texnodom" yirik savdo tarmoqlari tashkil etildi va mahalliy mahsulotlarni eksportga olib chiqish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Avval eksport faoliyati bilan shug'ullanmagan Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlaridagi 13 ta korxona ilk marotaba o'z mahsulotlarini eksportga olib chiqishiga erishdi.

"O'zeltexsanoat" uyushmasi tomonidan 2 ta yirik klaster amalga oshirildi. Jumladan, Toshkent viloyati Ohangaron tumanida "Mis sanoati klasteri" tashkil etildi. Umumiy qiymati 120 million dollarga teng 9 ta loyihani o'z ichiga olgan mazkur majmuada yiliga 63 ming 500 tonna misni qayta ishlash quvvatiga ega. Buning natijasida 965 ta yangi ish joylari tashkil etildi.

Ikkinchi yirik loyiha "Chiroqchi" erkin iqtisodiy zonasi hududida quyosh suv isitish uskunalari, quyosh fotoelektrik panellari, shamol, biogaz, gidroelektr qurilmalari va inshootlarini, elektr energiyasini saqlovchi akkumulyatsiya tizimlari va boshqa yordamchi jihoz hamda uskunalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Solar cluster" loyihasi hisoblanadi. Bu yerda umumiy qiymati 38,7 mln dollarlik 6 ta loyiha amalga oshiriladi va buning natijasida 500 ta yangi ish joylari tashkil etildi.

Elektrotexnika sanoati va unga yondosh sohalarni rivojlantirish, yuqori texnologiyali hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini sohaga keng joriy etish maqsadida:

Elektrotexnika sanoatini 2025 – 2027-yillarda rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

tarmoqda qo'shilgan qiymat ulushini o'rtacha 21 foizdan 30 foizga va ishlab chiqarish hajmini 58 trillion so'mga yetkazish;

qayta ishlash jarayonlariga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va diversifikatsiya qilish hisobiga eksport hajmini 3,0 milliard AQSH dollariga yetkazish;

yuqori texnologiyalarga asoslangan elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda innovatsion g'oyalarni joriy etishni qo'shimcha rag'batlantirish orqali umumiy qiymati 4,0 milliard AQSH dollari miqdoridagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, raqamli boshqaruv tizimini joriy etish orqali mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish.

Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishning 2025 – 2027-yillarga mo'ljallangan¹ MAQSADLI KO'RSATKICHLARI

T/r	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	2024-yil (joriy ko'rsatkich)	2025-yil	2026-yil	2027-yil
1.	Ishlab chiqarish hajmi	trln so'm	31	43	50	58
2.	Mis xomashyosini birja savdolariga chiqarish hajmi	ming tn	92	110	125	145
3.	Eksport	mlrd doll.	1,2	1,7	2,5	3,0

Elektrotexnika sanoatida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga asoslangan mahsulotlar ro'yxati:

1. Identifikatsiya uchun mo'ljallangan mikroprotsessor modullari;
2. Uyali va boshqa simsiz aloqa tarmog'i uchun telefon, planshet va ularning butlovchi qismlari;
3. Kompyuter, noutbuklar va ularning butlovchi qismlari hamda avtomatlashtirilgan depozit mashinalari;
4. Bosib chiqarish, skanerlash, nusxa ko'chirish va uzatish qurilmalari;
5. Elektron axborot tashuvchi vositalar;
6. Elektronika yo'nalishidagi mahsulotlar (yarimo'tkazgich, mikroshema, elektron chip, quyosh panellari uchun yacheyka va boshqalar);
7. Tibbiyot uskunolari (MRT, rentgen, portativ tashxis uskunasi va boshqalar);
8. Robot va robototexnika uskunolari, uchuvchisiz uchish qurilmalari;
9. Mis xomashyosidan qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar (misdan folga, egiluvchan plata, elektromobil zaryadlash uskunolari);
10. Texnologik asbob-uskunalar (uskunasozlik) va ularning butlovchi va ehtiyot qismlari;
11. Uskunalar uchun qoliplar (press forma);
12. Elektromobillar, quyosh va shamol elektrostansiyalari uchun batareyalar va inverterlar.

2025-yilda Investitsiya va tashqi savdo ishlab chiqarish qoshidagi Investitsiya loyihalarini ishlab chiqarish markazi ham Koreyaning Iqtisodiy innovatsion dasturlari (EIPP) doirasida "O'zbekistondagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'rib chiqish va ishlab chiqarish strategiyasini ishlab chiqarish uchun" hamda "Quyoshlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ishlab chiqarish texnikasi" "O'zeltexsanoat" ishlab chiqarish ishlab chiqarish loyiha uchun Texnik shart ishlab chiqilib, Koreya tomoniga ishlab chiqariladi.

Muqobil energiya uchun qurilmalarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va rag'batlantirish bo'yicha jahon tajribasi o'rganilmoqda.

Koreyaning EIPP dasturi doirasida Koreyalik ekspertlar bilan ishlash olib borilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun qurilmalarning

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-7335800>

texnologiyasini mustahkamroq o'rganish maqsadida 2025-yilning iyun oyida Koreyaga tashrif uyushtirildi.

Elektrotexnika sohasida ilmiy xodimlar va tajriba-konstruktorlik ishlarini boshqarish ilg'or ishlab chiqarish ishlarini olib boradi.

O'rganishlar natijasida to'plangan ma'lumotlar asosida Innovatsion rivojlanish loyihalariga taqdim etish uchun takliflar taqdim etildi.

Shu bilan birga, Innovatsion rivojlanish vakillari bilan birgalikda loyihasini ishlab chiqarish amaliyoti boshlangan.

Germaniyaning "Siemens Energy" kompaniyasi bilan ko'plab mamlakatlarda o'z samarasini bergan "Dual ta'lim" dasturini ishlab chiqarish va qo'llab-quvvatlash ishlab chiqarishga yordam beradi.

"Siemens Energy" korxonasi vakillari birgalikda 2025-yil 18-20-yanvar kunlari "Dual ta'lim" dasturini ishlab chiqish va mahsulotlarga Chirchiq davlat institutlaridagi xizmat ko'rsatish va texnik xizmat ko'rsatish, Chilonzor 1-sonli kasb-xunar maktabining o'quv bazalari va "Chirchik Energy Group" MChJ korxonalari, "TransChiq" kompaniyalar guruhi, Germaniya transformator zavodlari" ishlab chiqarilish yarayonlari o'rganildi.

2025-yilning 25-fevral kuni Chilonzor 1-son kasb-xunar maktabiga borib, "Siemens Energy"si vakillari bilan "Dual ta'lim" tizimni yoritishdagi muammolar va yutuqlari yuzasidan muzokaralar olib borildi.

Mazkur lyoyiha doirasida 3-yilga mo'ljalangan mutaxassislarni tayyorlash dasturi, birinchi bosqichda muxandis elektron va sanoat ishlab chiqarish mexanik mutaxassislari tayyorlash rejalashtirildi.

O'quv massasalari va ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik o'rnatildi. "Artel" korxonasi "Saqlash elektronika mutaxassisi" yo'nalishida ta'lim olish uchun har yili 25 nafar o'quvchini qabul qilish uchun muzokaralar olib bordi.

Elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni rag'batlantirish borosida xorij davlatlarining tajribasi o'rganilmoqda.

Qo'raqalpog'iston viloyati hokimliklari Kengashi va "Toshelektroapparat" MChJ XK ishlab chiqarish quvvatlarini ishlab chiqarish bo'yicha elektromobillarni ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan Andijon viloyatidan Qoraqalpog'iston hududiga M-37, M-39 va A-380 magistral yo'llarini o'rnatish bo'yicha kelishib olindi.

O'rganish natijasida Qoraqalpog'istonda jami 8 ta, Xorazm viloyati jami 6 ta, Buxoro viloyati jami 14 ta, Jizzax viloyatida jami 5 ta, Navoiy viloyati jami 6 ta, Namangan viloyatida jami 3 ta, Samarqand viloyatida 8 ta, Samarqand viloyatida jami 8 ta, Sirdaryo viloyati, Toshkent viloyatida 6 ta elektromobillarni zaryadlash qurilmalari o'rnashtirish rejalashtirildi.

Elektr transport vositalari uchun elektr quvvatlantiruvchi uskunalari ishlab chiqarish maqsadida "Toshelektroapparat" MChJ kuch Koreya, Rossiya va Xiyotoyning yetakchi tajribasi bilan muzokaralar olib bormoqda.

2025-yil 8-mayda "O'zeltexsanoat" uyushmasida muhim uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi

investitsiyasi bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan muqobil energetika loyihalari bosh pudratchisi – "L&T Construction" kompaniyasi bilan uchrashdi.

2025-yil 15-mayda Xitoyning "Dongfang Electric Corporation" kompaniyasi korxona bo'yicha direktori W Hao boshchiligidagi delegatsiyalar "O'zeltexsanoat" uyushmasi xodimlari hamrohligida "Techno Cable Group" kompaniyasiga tashrif buyurdi.

Tashrifdan asosiy maqsad – "Dongfang Electric Corporation" kompaniyasi korxona O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yashil energetika vositalariga kabel-sim ishlab chiqarish bo'yicha muzokaralar o'tkazish, mahsulotni talabning turlari, sifatli va xalqaro darajadagi mosligini o'rganishdan iborat bo'ldi.

Qayd etish joiz, kompaniya ayni paytda Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanida quvvati 300 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish loyihasini amalga oshiradi.

2025-yil 14-16-may kunlari Rossiyaning Qozon shahrida o'tkazilayotgan "Russia Halalo Exp 2025" xalqaro ko'rgazmasida "O'zeltexsanoat" uyushmasi boshchiligidagi faol ishtirok etdi.

"O'zeltexsanoat" uyushmasi ko'rgazmada alohida ekspozitsiya bilan qatnashib, maishiy va kabel sanoatga oid mahsulotlarni uchta xususiyat zonaga taqdim etish texnologiyasi:

- Oshxona zonasi – bu bo'limda zamonaviy maishiy texnika namunalari namoyish etildi;

- Qurilish zonasi – bu qismda elektr quvvati uchun mo'ljallangan turli quvvatdagi kabel mahsulotlari;

- Vanna tekshiruv zonasi – bu zonada esa maxsus maishiy texnika turlari bilan tanishish mumkin.

2025-yil 16-mayda O'zbekiston elektrotexnika sanoatida sanoat ishlab chiqarishni yaxshilash, Xitoyning "Mega Energy" kompaniyasi texnik direktori janob Wei Xing boshchiligidagi delegatsiya "O'zeltexsanoat" kompaniyasi mas'ullari hamrohligida "Uzkabel" va "Artikel Aziya Kabel"ga tashrif buyurdi.

Ushbu tashrif chog'ida Xitoy kompaniyasi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish energetika loyihasi – Sergeli tuman quvvat quvvati 150 MW bo'lgan BESS (Battery Energy Storage System) ishlab chiqarish loyihasini ishlab chiqish masalalari bo'yicha yordam beradi.

2025-yil 21-may kuni Toshkent shahrida Gruziya Savdo-sanoat palatasi ishbilarmon doiralardan iborat delegatsiya tashrifi doirasida "O'zbekiston–Gruziya" biznes forumi hamda ikki tomonlama uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Ushbu forumda "O'zeltexsanoat" uyushmasi rahbari Faridun Abdualimov ishtirok etdi va elektrotexnika sanoatining jadal rivojlanayotgan yo'nalishlari, investitsiya jarayonlari hamda Gruziya bilan hamkorlik qilish ishlarini loyihalashtirdi.

2025-yil 9-iyun kuni "O'zbekiston–Slovakiya biznes forumi" dasturi doirasida "PPS Group" kompaniyasi bilan "O'zeltexsanoat" uyushmasi o'rtasida muhim uchrashuv bo'lib o'tdi. "PPS Group — Yevropaning metall konstruksiyalari ishlab

chiqarishsi bo'lib, 19 davlat tashkiloti 55-yilda ishlab chiqilgan. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi, qurilish, mudofaa sanoat uchun yig'ish payvandlangan po'lat konstruksiyalar, texnik ramkalar va boshqa jihozlarga ruxsat beradi. 16-iyun kuni "O'zeltexsanoat" uyushmasiga Xitoyning yaqin "China Electronic Equipment" kompaniyasi delegatsiya tashrif buyurdi. . Ish jarayonida transformator ishlab chiqarish quvvatlarini qayta ishlash bo'yicha ishlar bilan hamkorlik qilish masalalari ham muhokama qilinadi.

2025-yil 13-15 oktyabr kunlari Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tayotgan "Aquatherm Baku-2025" xalqaro ko'rgazmasi – issiqlik ta'minoti, ventilyatsiya, konditsioner tizimlari, suv ta'minoti elektr texnikasi eng nufuzli sanoat korxonalaridan biri unda shtirok etdi.

"O'zeltexsanoat" uyushmasiga 10 ta korxona o'z mahsuloti va innovatsion yechimlari bilan ishtirok etadi. Ular jami 130 dan ortiq boshqa qurilma – kabel va simlar, issiqlik regulyatorlari, nasoslar, energiya tejamkor elektr asboblari ilg'or texnologiyani taklif qiladi.

Kabel-sim mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari- "ProCab" QK MChJ, "Techno Cable Group" QK MChJ, "Andijonkabel" QK AJ, "UZKABEL" JJQK, "YUQORICHIRCHIY ENERGIYA TIZIMLARI" MChJ, "METALLARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI" MChJ, "GRAND TEXNOLOG" MChJ, "METSOL" MChJ.

Maishiy texnika ishlab chiqarish korxonalar – "ARTEL ELEKTRONICS MANUFACTURING" MChJ.

Elektr kuchlanishli ishlab chiqarish joylari – "Arca guruhi" MChJ.

Elektronika va asbobsozlik (tarmoqlar bo'yicha) mutaxassisligi uchun oliygohlar.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti;

Farg'ona davlat texnika universiteti;

Qarshi davlat texnika universiteti;

Jizzax politexnika instituti.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar tahlili

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozimlari va kasblar nomi
1	11200007	Boshqaruv raisi va o'rinbosarlari
2	11200006	Boshqaruv (korporatsiya, assotsiatsiya, bank) raisining birinchi o'rinbosari
3	11200018	Ishlab chiqarish birlashmasi (bosh) direktori
4	11200023	Korxona bosh direktori (boshlig'i, boshqaruvchisi) va o'rinbosarlari
5	11200014	Ijrochi direktor va o'rinbosarlari
6	12112012	Xo'jalik ishlari bo'lim boshlig'i (mudiri)
7	12120002	Kadrlar va mehnat munosabatlari bo'yicha bo'lim boshlig'i (mudiri)
8	12120007	Mehnatni tashkil etish va ish haqi bo'yicha bo'lim boshlig'i (mudiri)

9	12130007	Strategik rejalashtirish va faoliyatni rivojlantirish sohasida departament (boshqarma) direktori (boshlig'i)
10	13211	Bosh muhandis-konstruktor
11	13211	Bosh texnolog
12	13211003	Bosh dessinator (chizmach)
13	13211002	Bosh asbobsoz
14	13211012	Bosh mexanik (sanoatda)
15	13211014	Bosh muhandis
16	13211015	Bosh muhandis-mexanik
17	13211016	Bosh payvandchi
18	13211019	Bosh yormachi
19	13211025	Ishlab chiqarish sanoati sohasida boshqarma (bo'lim, bo'linma) boshlig'i (mudiri)
20	13211026	Ishlab chiqarish sanoatida (xizmat, guruh, sho'ba, sex, stansiya, punkt, uchastka, smena, ombor, otryad) boshlig'i (mudiri)
21	13211027	Ishlab chiqarish sanoatida laboratoriya boshlig'i (mudiri)
22	13212007	Bosh elektromexanik
23	13212010	Bosh mexanik (atom sohasida)
24	13212026	Qozonxona boshlig'i (direktori)
25	13301012	Elektron-hisoblash dastgohlari boshlig'i
27	14390029	Sinov laboratoriyasi mudiri
28	21411001	Ishlab chiqarishda texnik masalalar bo'yicha professional-mutaxassis
29	21442005	Sanoat uskunalari mexanik xizmat ko'rsatish bo'yicha professional-mutaxassis
30	21449005	Elektrotexnik sinovlar va nosozliklarni aniqlash bo'yicha muhandis
32	21449025	Sozlash va sinov ishlari bo'yicha muhandis
33	21449031	Yengil sanoat uskunali bo'yicha muhandis-mexanik
34	21492006	Nanomateriallar muhandisi
35	21496001	AES elektr jihozlari ta'mirlash va sozlash bo'yicha muhandis
36	21499008	Robototexnika bo'yicha muhandis
37	21519014	Yong'in va xavfsizlik signalizatsiyasi bo'yicha muhandis
38	21521001	Elektronika muhandisi
39	25140005	Sanoat mobil qurilmalar interfeysini loyihalovchi (UI/UX dizayner)
40	31131002	Elektromexanik-ustoz
41	31132010	Texnik-elektromexanik
42	31139003	Lift bo'yicha texnik
43	31142004	Robototexnika bo'yicha texnik
44	31142006	Sanoat robotlariga xizmat ko'rsatuvchi texnik-operator
45	31142007	Texnik-mexatronik
46	31145004	Aviatsiya asboblari va elektr uskunali bo'yicha mexanik
47	31151003	Elektromexanik
48	31151011	Mexanik (umumiy yo'nalish)
49	31151012	Mexanik-ta'mirlovchi
50	31151013	Mexanik-ustoz
51	31151014	Sanoat mexanigi
52	31153007	Sanoat uskunali bo'yicha mexanik
53	31153006	Sanoat jihozlari ta'mirlash ustasi

54	31153001	Atom elektr stansiyalari jihozlarini ta'mirlash, sozlash, sinovdan o'tkazish va ishga tushirish bo'yicha usta
55	31155002	Poyezdning muzlatkich bo'limi mexanigi
56	31159004	Kassa uskunalarini xizmat ko'rsatish bo'yicha mexanik
57	31159014	Parashyut va favqulodda-qutqaruv vositalari bo'yicha aviatsiya texnigi (mexanik)
58	31299006	Mexanika muhandisi yordamchisi
59	31390003	Kontakt tarmog'ining elektr jihozlarini ta'mirlash bo'yicha elektromontyor
60	43220017	Texnik nazorat bo'limi nazoratchisi
61	72121001	Argon muhitida qo'lda elektr yoyli payvandlovchi
62	72121002	Armatura to'rlari va karkaslarni payvandlovchi
63	72121003	Chiqish payvandlash avtomatlari sozlovchisi
64	72121004	Diffuzion-payvandlash qurilmalarida payvandlovchi
65	72121005	Elektron-nurli payvandlash qurilmalarida payvandlovchi
66	72121006	Elektrovibrosirt qoplovchi
67	72121007	Flyus qatlami bilan elektr yoyli payvandlovchi
68	72121008	Ichki yonuv dvigateliga ega ko'chma elektropayvandlash agregati mashinisti
69	72121009	Issiqlik bilan biriktirish operatori
70	72121010	Kavsharlovchi
71	72121011	Kontakt (press) payvandlash dastgohlarida payvandlovchi
72	72121012	Lazer qurilmalarida payvandlovchi
73	72121013	Magistral gaz va neft mahsulotlari quvurlarini payvandlash uchun ko'chma kontakt-payvandlash qurilmasi mashinisti
74	72121014	Mashina-kontaktli payvandlashda payvandlovchi
75	72121015	Metall kukuni bilan qoliplarni mustahkamlash payvandlovchisi
76	72121016	Metall qizdiruvchi (payvandlovchi)
77	72121017	Mikropayvandlash operatori
78	72121018	Minorachi-payvandlovchi
79	72121019	Payvandlash kompleksi operatori
80	72121020	Payvandlash va gaz-plazma kesish uskunalarini sozlovchi
81	72121021	Qiyin eriydigan metalli buyumlarni payvandlovchi
82	72121022	Quvurlarni pechda payvandlovchi
83	72121023	Shisha buyumlarni payvandlovchi
84	72121024	Termitli payvandlash payvandchisi
85	72121025	To'g'rilagichlarni payvandlovchi
86	72121026	Yuqori chastotali tok qurilmalarida payvandlovchi
87	72149004	Chilangar-mexanik
88	72149039	Texnik xizmat ko'rsatish va kapital ta'mirlash bo'yicha chilangar-mexanik
89	72232002	Avtomat va yarimavtomat liniyalar dastgohlari va qurilmalari operatori
90	72232004	Avtomatlar va yarimavtomatlar sozlovchisi
91	72233010	Sim va troslarni o'rovchi
92	72233011	Simdan o'zak o'rovchi
93	72233012	Simni kanillovchi
94	72233014	Tortuvchi
95	72233004	Metall to'rlarni tortuvchi
96	72231011	Frezalovchi

97	72231012	Frezalovchi-yo'nuvchi
98	72337005	Ventilyatsiya va konditsioner tizimlarini ta'mirlovchi chilangar
99	72311001	Avtotransport vositalari mexanigi
100	72311002	Avtotransport vositalarining mexatronikasiga xizmat ko'rsatuvchi mexanik
101	72311005	Kichik hajmli dvigatellar mexanigi
102	72311006	Mexanik-motorist yoki dizelist (avtomobil dvigatellaridan tashqari)
103	72319002	Avtoelektromexanik
104	72319003	Avtomexanik
105	72320023	O'rnatmalar va uskunalarni sinovdan o'tkazuvchi mexanik- chilangar (uchish apparatlari)
106	72335026	Quyosh panellarini o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar
107	72333034	Texnologik qurilmalar va ular bilan bog'liq konstruksiyalar montajchisi
108	72333035	Texnologik qurilmalarni ta'mirlovchi chilangar
109	74123001	Maishiy elektr jihozlarni ta'mirlovchi elektromexanik
110	74129019	Elektr jihozlari izolyatsiyasi va o'ramlarini ta'mirlash bo'yicha elektromontyor
111	74129079	Uchish apparatlarining elektr jihozlari montajchisi
112	74129020	Elektr jihozlarni o'rnatuvchi
113	74129021	Elektr jihozlarni ta'mirlash bo'yicha chilangar-elektrik
114	74129022	Elektr jihozlarni ta'mirlash bo'yicha elektrik
115	74129023	Elektr jihozlarni ta'mirlovchi elektromontyor
116	74129077	Texnologik elektr jihozlarni ta'mirlash bo'yicha elektr-chilangar
117	74129072	Signalizatsiya, markazlashtirish va blokirovka bo'yicha elektromontajchi
118	74129073	Signallashtirish, markazlashtirish va bloklash qurilmalarini ta'mirlash va xizmat ko'rsatish elektromontyori
119	75320005	Material va buyumlarni kesuvchi
120	75320006	Material va buyumlarni kesuvchi (yengil sanoat)
121	81221001	Avtomatik va yarim tayyor liniyalar operator-galvanigi

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan kasb (lavozim)lar soni	Ishlab chiqilgan yil va oy
1.	10	40	2025-yil, iyun-dekabr
2.	30	120	2026-yil, yanvar-dekabr

6.Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy faoliyat turlari va lavozim (kasb)lar kodi hamda nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
